

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XIZMATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

O'razbayev Beksulton Ilyasovich

Toshkent davlat transport universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14879665>

**Annotatsiya.** Maqolada davlat xizmati tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek davlat xizmati tushunchasiga olimlarning turli xil nazariy jihatdan qarashlari va g'oyalari atroflicha tahlil qilingan. Davlat xizmatini rivojlantirishga qaratilgan xulosa va takliflar keltirilgan

**Kalit so'zlar:** davlat xizmati, davlat xizmatchisi, davlat fuqarolik xizmati, davlat xizmatini o'tash.

## CHARACTERISTICS OF THE CIVIL SERVICE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Abstract.** The article provides a detailed analysis of the concept of civil service and its specific features, as well as various theoretical views and ideas of scientists on the concept of civil service. Conclusions and proposals are made to develop the civil service

**Keywords:** civil service, civil servant, civil service, civil service.

## ОСОБЕННОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Аннотация.** В статье дается подробный анализ понятия государственной службы и ее специфических черт, а также различных теоретических взглядов и идей ученых относительно понятия государственной службы. Были представлены выводы и предложения по развитию государственной службы.

**Ключевые слова:** государственная служба, государственный служащий, государственная служба, государственная служба.

Har bir mamlakat taraqqiyoti ma'lum bir ma'noda davlat xizmatining qay darajada yaxshi tashkil etilganligi, mamlakatda mehnat munosabatlari huquqlarining davlat darajasida kafolatlanishi, davlat xizmatiga kirishda shaffoflikning darajasiga bog'liq. Ilg'or jahon tajribasidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki davlat fuqarolik xizmati mehnat munosabatlarning bir turi bo'lib, u davlat organlarining davlat xizmati lavozimlaridagi vakolatlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi haq to'lanadigan kasbiy faoliyatdir.

Davlat xizmati va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ko'plab olimlar fikr bildirganlar.

Shu o'rinda ta'kidlashimiz joizki, ko'pgina davlatlar qonunchiligida va maxsus adabiyotlarda barcha uchun bir xilda qabul qilingan, yagona bo'lgan davlat xizmati tushunchasi mavjud emas.

Xususan, V.M. Manoxinning fikricha, "davlat xizmati – bu davlat organlarini va boshqa tashkilotlarini tashkil etish va huquqiy tartibga solish bo'yicha davlat faoliyatining bir bo'lagi hisoblanadi. Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati esa davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishga qaratiladi"<sup>1</sup>.

Rossiyalik olim Y.U. Tixomirov "davlat xizmati – bu davlat organlari vakolatlarini bajarishi kerak bo'lgan xizmatchilarning to'xtovsiz professional faoliyati"<sup>2</sup> sifatida ta'rif beradi.

Yana bir huquqshunos olim B.M. Lazerov "davlat xizmati – davlatga xizmat qilish, ya'ni uning talabi bilan ma'lum bir pul mukofoti evaziga davlat organida davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha bo'ladigan faoliyatdir"<sup>3</sup> deb ta'riflaydi.

Yuqoridagi ta'riflarni umumalashtirgan holda, fikrimizcha davlat xizmati – bu davlat organlarida muayyan belgilangan mansabni egallagan shaxs tomonidan davlatning funktsiya va vazifalarini bajarish maqsadida hokimiyat vakolatlarining amalga oshirilishiga qaratilgan professional faoliyat bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston davlat fuqarolik xizmatida teng imkoniyatlar tamoyilini qo'llab-quvvatlagan holda, fuqarolar manfaatlariga xizmat qiladigan, mamlakatning har tomonlama rivojlanishi va taraqqiyotiga hissa qo'shadigan professional, hisobdor va samarali davlat boshqaruvini shakllantirishni maqsad qilgan.

E'tibor qaratadigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlab o'tilgan olimlar fikrlarini umumlashtirib turadigan jihat – bu davlat xizmati davlat xizmatchilarini davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni bajarishga qaratilgan faoliyat sifatida ta'riflanishi barcha fikrlarda umumiy jihat sifatida keltirib o'tilgan. Shuningdek, yuridik adabiyotlarda davlat xizmati tushunchasiga bir necha ma'nolarda yondashish nazarda tutilgan. Jumladan, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy ma'nolari ta'kidlab o'tilgan. Ijtimoiy va huquqiy ma'noda davlat xizmati tushunchasiga yondashishga to'xtalib o'tsak, fikrimizcha maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi navbatda, davlat xizmatiga ijtimoiy ma'noda yondashuvga e'tibor qaratsak. Davlat xizmati ijtimoiy kategoriya bo'lib, davlat tashkilotida ma'lum bir lavozimni egallab turgan shaxs, yoki shaxslar guruhi desak ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Endi e'tiborimizni davlat xizmatiga huquqiy ma'noda yondashuvga qaratsak. Yuridik adabiyotlarda davlat xizmatiga huquqiy yondashuv haqida "davlat xizmatiga huquqiy yondashuv,

<sup>1</sup> Манохин В.М. Государственная служба. Москва, 1966, с 5.

<sup>2</sup> Тихомиров Ю. А. Административное право и процесс: полный курс. М.: Наука, 2016. с 406.

<sup>3</sup> Лазарев Б. М. Государственная служба / Б. М. Лазарев ; Акад. правовой ун-т при Ин-те государства и права РАН. – Москва : ИГПАН, 1993. – с 16.

davlat-xizmat munosabatlarini o'rnatish bo'lib, bu orqali mansab majburiyatlari, xizmatchilarning vakolatlari, davlat organlarining kompetensiyasi bajarilishi ta'minlanadi"<sup>4</sup> deb ta'rif berilgan.

Dmitriy Aleksandrovich davlat xizmatining birinchi o'ziga xos elementi sifatida ochiq faoliyatni keltirib o'tgan. Aytishimiz mumkinki, bugungi kunda dunyo bo'ylab ochiqlik, oshkoralik bir so'z bilan aytganda jamiyat va davlat hayotining barcha jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat xizmati, davlat xizmatini o'tashda ochiqlik muhim ahamiyatga ega. Ikkinchi jihatga, ya'ni majburlash choralarini o'z ichiga olgan davlat vakolatlari qo'llanilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak.

Professor G.V. Atamanchuk davlat xizmati xususida "davlat xizmati – bu davlatning maqsadlari va funksiyalarini amalga oshirishda fuqarolarning amaliy va professional ishtiroki" deb ta'rif bergan<sup>5</sup>.

Davlat xizmatchilari bevosita davlat vazifa va funksiyalarini davlat ko'rsatmalari asosida amalga oshiradilar va ushbu jarayonlarda munosabatlar imperativ ahamiyat kasb etadi. Uchinchi jihatga e'tibor qaratadigan bo'lsak. Davlat xizmati maxsus professionallar faoliyati. Ya'ni, bu davlat xizmatini o'tashda davlat xizmatchilari qonunda belgilangan huquq va kafolatlarga, majburiyatlarga va maxsus maqom (status)ga ega bo'lishini nazarda tutadi. To'rtinchi jihatga, faoliyatning hududiy ko'lamiga e'tibor qaratadigan bo'lsak. Davlat xizmatini o'tash faqat Respublika miqyosida, ya'ni markazda emas, balki hududlar kesimida ham amalga oshirilishini bildiradi. Beshinchi jihat, jamiyat va davlatning barcha moddiy-texnik va moliyaviy vositalaridan foydalanish va oltinchi jihat davlat manfaatlarini ta'minlashga e'tibor beradigan bo'lsak. Davlat xizmati yuqorida ta'kidlab o'tilganidek davlatga xizmat qilish, davlat xizmatchilarini davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni bajarishga qaratilgan faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda aytishimiz kerakki, davlat xizmati murakkab ijtimoiy-huquqiy institutlardan biri bo'lib hisoblanadi va uni o'rganish davlat xizmatining huquqiy asoslarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu institut davlat-xizmat muno sabatlarini tartibga soluvchi normalar yig'indisidan iborat bo'ladi va bu orqali davlat xizmatchilarining huquqlari, majburiyatlari, ularga belgilanadigan cheklovlar, javobgarlik hamda davlat xizmatini o'tash, xizmat munosabatlarining yuzaga kelishi va bekor bo'lishi tartibga solinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bunda barcha moddiy-texnik va moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyati bo'lishi lozim va uning maqsadi davlat manfaatlarini ta'minlash bo'lishi kerak.

<sup>4</sup> E.R.Hojiyev, G.S.Ismailova, M.A.Rahimova. Davlat xizmati: o'quv qo'llanma. Toshkent: Baktria press, 2015. 40-b.

<sup>5</sup> Атаманчук Г.В. Сущность государственной службы: история, теория, закон, практика. Монография. 12 – М.: Издательство РАГС, 2002 г. с 113.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, davlat xizmati – bu davlat organlari va tashkilotlarida davlat funktsiya va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan professional faoliyat boʻlib hisoblanadi. Shuningdek, davlat xizmatining alohida oʻziga xos jihati sifatida uning predmetini keltirishimiz mumkin. Yaʼni davlat xizmati, davlat-xizmat munosabatlarida vujudga keladigan yuqorida tahlil qilingan keng qamrovli munosabatlarni tartibga solishi bilan ajralib turadi.

## REFERENCES

1. Тихомиров Ю. А. Административное право и процесс: полный курс. М.: Наука, 2016. с 406
2. Лазарев Б. М. Государственная служба / Б. М. Лазарев ; Акад. правовой ун-т при Ин-те государства и права РАН. – Москва : ИГПАН, 1993. – с 16.
3. Манохин В.М. Государственная служба. Москва, 1966, с 5. Атаманчук Г.В. Сущность государственной службы: история, теория, закон, практика. Монография. 12 – М.: Издательство РАГС, 2002 г. с 113.
4. E.R.Hojiyev, G.S.Ismailova, M.A.Rahimova. Davlat xizmati: oʻquv qoʻllanma. Toshkent: Baktaria press, 2015. 40-b.
5. Д.Александрович. Отличительные черты государственной службы. Московский государственный юридический университет им. О.Е. Кутафина. <https://studfile.net/preview/16371490/page:10/>
6. Полянский И.А. Административное право Российской Федерации: Учебник для юридических вузов. – Система гарант, 2008. С 105.
7. Davlat tili haqida (yangi tahriri). Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni.– T.: Oʻzbekiston, 1997.